

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
ISTANBUL TIJORAT UNIVERSITETI
QOZON FEDERAL UNIVERSITETI
BALIKESIR UNIVERSITETI**



**“SIFATLI TA'LIM VA INTERDISIPLINAR YONDASHUV:
MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA HAMKORLIK”**

xalqaro ilmiy amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26-may

GULISTON-2023

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti
Istanbul tijorat universiteti
Qozon federal universiteti
Balikesir universiteti

“Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik”
xalqaro ilmiy - amaliy anjuman
materiallari
25-26-may

BOLO HOVUZ MASJIDINING TA'MIROTI (XX asrning 20-80-yillarida)

Abdullaeva Dilfuza Abdujalilovna

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasasi o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

dilfuza.abdullaeva.90@list.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxorodagi Bolo Hovuz masjidining XX asr 20-80-yillari davridagi ta'mirlanish tarixi bilan bog'liq jarayonlar yoritilgan. Masjidning ta'mirlanishida ishtirok etgan maxsus tashkilot hamda muassasalar faoliyatining o'rni va ahamiyati asoslab berilgan. Shu bilan birga, Bolo Hovuz masjidining foydalanividagi noo'rin munosabat, qolaversa, ijara tizimidagi muammolar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxkomstaris, texnik ko'rik, ta'mirlash, arxitektor, me'moriy obida, dalolatnomma, Buxoro MIRICHU, muhofaza, ijara, ekspluatatsiya.

Annotation: This article covers the processes related to the history of the renovation of the bolo pond mosque in Bukhara during the 20s and 80s of the 20th century. The role and importance of the activities of the special organization and institutions involved in the renovation of the mosque is based. At the same time, the inappropriate attitude to the use of the bolo pool mosque, in addition, problems with the rental system are revealed.

Keywords: Buxkomstaris, technical inspection, repair, architect, architectural monument, deed, Bukhara MIRICHU, protection, rent, operation.

Ma'lumki, sovet davridagi hukmron mafkuraning har qanday din va diniy e'tiqodga murosasiz siyosati yurtimizdag'i diniy muassasalarga ham salbiy illat maskani sifatida qarashni yuzaga keltirdi. O'sha davr ommaviy axborot vositalarida tez-tez uchraydigan "Diniy qadamjolar-xurofot o'chog'i", "Din ta'siriga qarshi kommunistik tarbiyaning o'rni", "Tarixiy yodgorliklarga kommunistik qarash" singari shiorlar bilan yuritilgan tashviqotlar oqibatida islam me'morchiligining ko'pgina noyob namunalardan voz kechildi. Qolgan qismi esa kommunistik mafkuraning dahliliylik targ'iboti ostida mazmun-mohiyatidan begonalashtirildi. Shunga qaramay, mas'ul tashkilot mutasaddilar, ilmiy jamoatchilik, qolaversa, mahalliy o'lkashunos olimlar va usta-me'morlarning sa'y-harakati bilan Buxorodagi me'moniy yodgorliklar qisman saqlab qolindi.

Buxorodagi noyob me'moriy obida bo'lgan Bolo Hovuz masjidining ta'mirlanish masalasini Maxsus tashkilot va muassasalarning o'tgan asr 20-80-yillari mobaynida masjidlar ta'miri bilan bog'liq faoliyati asosida o'rganish imkonini mavjud. Tabiat, san'at, qadimiy yodgorliklarni saqlash va muzey ishlari bo'yicha O'rta Osiyo qo'mitasasi (Средазкомстарис) tomonidan 1927-yil mart oyida Bolo Hovuz masjidining ro'yhatga olinishi unga sovet hukumati diniy siyosati ta'siridan qisman omon qolish imkonini yaratdi [1]. Bu, obidalardan voz kechishdan ko'ra ulardan xo'jalik inshooti sifatida foydalanish zarurati bilan xarakterlidir.

Shu o'rinda yodgorliklar foydalanuvining ijara tizimida ham bir qator muammolar mavjud ediki, bu Bolohovuz masjidini ham chetlab o'tmadidi. 1937-yil 11-sentyabrda "Qandolat-savdo" ("Кандитерсбыт") tashkilotiga ijaraga berilgan masjidda Buxkomstaris tomonidan amalga oshirilgan taftish-nazorat xulosalarida yodgorlikni saqlash qoidalarining buzilganligi qayd etilgan [2]. Ayniqsa, masjid ayvoniga brezent matosi tortilishi oqibatida korniz qismiga katta zarar etkaziladi. Buxkomstaris murojaati natijasida 1938-yilda ta'mirlash ishlari ko'lami tuzib chiqilgan. 1939-yil 17-mayda bo'lib o'tgan O'zSSR Fan qo'mitasining 8-sonli yig'ilishida Bolo Hovuz masjidi Buxoro shahar sovetiga "madaniy ehtiyojlarda foydalanish uchun" topshiriladi [3]. Endilikda, masjiddan foydalanish huquqi shahar soveti "xohish va irodasi" ga bog'liq bo'ldi.